

PAPER

PEDAGOGIK OLIY TA'LIMDA TALABALAR O'QUV FAOLIYATINI TASHKIL ETISHDA IMPROVIZATSIYANING QO'LLANILISHIGA DOIR MUNOSABATLAR

Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna¹, *

¹Andijon davlat pedagogika instituti Tarix kafedrası katta o'qituvchisi

* ergasheva@gmail.com

Abstract

Pedagogik ijodkorlikning o'ziga xos xususiyatlari va mexanizmini chuqur o'rganmay turib, ta'lim sohasida uni samarali rivojlantirib bo'lmaydi. Biroq, uning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan improvizatsiya pedagogik jarayonga qiziqish va ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiq etilayotgan muammo yuzasidan kengroq izlanishlar olib borish, mamlakatimizda bo'lajak o'qituvchilarni kasbga tayyorlash jarayonida mavjud kompetensiyalarni rivojlantirish zamirida pedagogik improvizatsiyani shakllantirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratish ta'limni samarali amalga oshirish uchun zamin yaratadi. Maqolada pedagogik improvizatsiyaning zamonaviy pedagogikada dolzarb ahamiyati mavjudligi haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar tahlil etilgan.

Key words: Texnologiya, metod, pedagogik mahorat, "Uchta asosiy "I" texnologiyasi, Pedagogik intonatsiya, Pedagogik intuitsiya, Pedagogik intonatsiya.

Kirish

Zamonaviy ta'lim – sohalar va tarmoqlarni umumiy bog'liqlik asosida rivojlanishni taqozo etadi. Pedagogik va ilmiy faoliyatning hamjihatlikdagi umumlashgan oliy ta'lim sohasida o'quv faoliyati o'qituvchi va talaba o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlardan ilmiy asoslarning yaratishiga asoslanadi. Bu talabaning turli hil qarashlaridan kelib chiqib, o'qituvchida pedagogik mahorat bilan mavzuning ilmiy asosini yaratib berish bilan bog'liq jarayonni nazoratga olishini zarurat deb belgilaydi. Shuningdek fan mavzularining umumiy birligi va asosiy qarashlardagi atamalar bilan ishlash yoki davriy nuqtai nazardan arxaik bo'lgan atamalarni zamonaviy nomlarini keltirish orqali talabalarga tushuntirish va anglash jarayonini umumlashtiradi. Maktabda o'qitish metodikasi o'zgarmasa, ta'lim sifati ham, mazmuni ham, muhit ham o'zgarmaydi.

Dars jarayonini boshqarishda o'qituvchining boshqaruv faoliyatiga oid improvizatsiya har doim dolzarbdir, o'qituvchi ta'limni boshqaruvchisi sifatida subyekt-subyekt munosabatlari

tizimida kasbiy faoliyatni amalga oshiradi, qaysiki ko'p o'zgaruvchan o'zaro ta'sirlar, oldindan aytib bo'lmaydigan va katta ulush bilan tavsiflanadi. Bu jarayonda talabalarga oid spontan va diologik javoblar, vaziyatni zudlik bilan tahlil qilishni va qabul qilishni talab qiladi vaqt cheklovlari ostida qarorlar qabul qilish va uni jamoaviy birlashtirishning alohida ahamiyatli tarafi mavjud. Shuningdek Prezident oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalar sirasida Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish maqsadi alohida belgilangan me'yorlar bilan tasdiqlangan.

Xar bir pedagogni oliy ta'lim sohasida dars jarayoniga tayyorlash undagi o'quv, ilmiy sohadagi bilimlarini mustahkamlash bilan qurollantirish zarurati mavjudli bilan birgalikda bo'lajak o'qituvchining nutq madaniyati va darsni tashkil etishdagi turli loyihaviy qarashlarini ham rivojlantirish

jarayonini ham nazoratga olish zarur. Pedagogik Oliy ta'lim tizimini tashkil etiladigan dars mavzularini talabalarga yetkazish shartlari ayni bugungi kun ta'lim sohasining muommosi emas, bu jarayon asrlar davomida ta'lim sohasining o'zgarib boruvchan o'quv va ilmiy jarayonning qatnashuvchilariga beriladigan imkoniyat va vazifalar bilan bevosita bog'liq hisoblanadi. Zero: Professor A.V. Tolshinning ta'rifiga ko'ra: "Dars — bu ijodiy jarayon. Uning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchi va talabalar o'rtasidagi aloqa shakli va usullariga bog'liq. Ushbu aloqa jonli, improvizatsion xarakterga ega hisoblanadi. Talabalar bilan erkin va ijodiy suhbat qurish, ularning jonli reaksiyasini ishlatish, darsni dramaturgiya qonunlariga muvofiq qurish — darsning ijodiy muhitini yaratishda zarur elementlardir" [9; 44] Pedagogikada keng tarqalgan "metodika" atamasi, bu sohada san'atning alohida o'rnini mavjudligini ko'rsatadi, ammo, so'nggi o'n yilliklarda bu atama "texnologiya" atamasi bilan almashtirilgan. Texnologiya tarkibida qat'iy algoritmashgan jarayonlarni o'z ichiga oladi, bu esa pedagogik san'atning uchta asosiy "I"(3 - 1) — intuitsiya, improvizatsiya va intonatsiya taxnologiyasini e'tiborga ostiga oladi. Zero oliy ta'lim tizimining talabalar bilan bog'liq jarayonda ularning yosh hususiyatidan kelib chiqib, topshiriqlar bilan ishlash jarayonini tahlil etish bilan bog'liqdir.

Pedagogik improvizatsiya — bu o'zgaruvchan pedagogik vazifalarga tezkor va moslashuvchan javob berish, qarorlarni puxta o'ylab chiqmasdan qabul qilishdir. Ehtimol ta'lim jarayonining ajralmas qismi bo'lgan emotsional vaziyatlar improvizatsiya har qanday yaxshi o'qituvchining ajralmas pedagogik texnologiyasidir. Chunki o'qituvchining doimiy va to'liq improvizatsionligi va talabalarning improvizatsion holati va jalb etilishi va kelajakdagi pedagogni erkinligini hamda dars jarayonini boshqarishdagi boshqaruvchanligini qo'liga olishning yo'lidir. K.S. Stanislavskiyning so'zlariga ko'ra, "doimiy improvizatsiya — bu ro'lni har doim yangilaydigan yagona narsa". Ayni ushbu holat jamoaviy muhitda ishlovchi o'qituvchi shaxsiga oid belgilanadigan kasbiy me'yor qoidalari bilan ham baxolanadi.

Improvizatsiya (lotincha "improviso" — "tayyorlanmasdan") — bu san'atning yaratilish jarayonida yaratilgan bir shaklidir. Pedagogik improvizatsiya ham shunday: o'qituvchining pedagogik metodlari va natijalari to'g'ridan-to'g'ri o'qituvchining ta'lim jarayonida yaratiladi. Improvizatsiya metodlari aniq yechimlarga olib kelmasdan, talabalarga muammolarni birgalikda hal qilishda yordam beradi.

Pedagogik intonatsiya — bu o'qituvchining ovozi va nutqini ishlatish san'ati. O'qituvchilar o'z o'quvchilarini tinglashga va tushunishga yordam berish uchun ovozning turli usullarini (tempo, ton, haqiqat va boshqalar) o'zgartirishadi. Bu san'at o'qituvchining pedagogik mahoratining ajralmas qismidir. Intonatsiya yordamida o'qituvchi talabalarning ruhiy holatini aniqlab, ularga zarur motivatsiyani bera oladi.

Ta'lim jarayoni uchun zaruratga aylangan pedagogik improvizatsiyaning turlarini tasniflagan L.Yu. Berikxanovanning ilmiy tadqiqotlarida qiziqarli ravishda o'zaro munosabatlarni tartibga solish bilan bog'liq jarayonlar uchun maxsus qarashlarni taklif qiladi. Ayni shu jihatdan qaralganda o'qituvchilar turli tasniflarga bo'linib, ular jarayonni nazoratga olish bilan bog'liq hususiyatlarda amalga oshiriladi. Ushbu o'qituvchilarning alohida ajralib turuvchi an'anaviy fikrga ega solist-o'qituvchi o'z ijodiy izlanishlariga shunchalik berilishicha guruhni ko'rmaydi yoki eshitmaydi. Kamtar o'qituvchi esa guruhga moslashib qolib, o'z yo'nalishini yo'qotadi. Biroq, haqiqiy pedagog-improvizator har doim o'z ishini ushlab turadi va improvizatsiya bilan oldindan belgilangan reja ustida ishlaydi. Ya'ni, nutq-treningda improvizatsion tarzda topilgan mashqda avvalo mahoratga erishish kerak, va faqatgina shundan keyin davom etish lozim. Shunday qilib, trening — improvizatsion, erkin, qo'shma ijodiy izlanish, alohida mashqlarni puxta ishlash va metodik

ketma-ketlikning kombinatsiyasidir. Biz buni boshqariladigan improvizatsiya deb atashimiz mumkin. Mahoratli pedagog tomonidan dars jarayonini to'liq nazoratga olish va buning uchun talabalarning turli hil qarorlari va xulosalarini ularning xarakteri jihatdan taqsimlangan umumiylikka birlashtirish majburiyati mavjud shu asosga ko'ra zamonaviy ta'limda pedagogik improvizatsiyaning mahsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lish jihatidan talqin etilishi muhim ahamiyatli hisoblanadi. Zero pedagogika kasbinining o'ziga xosligi shundaki, u o'z mohiyati bo'yicha gumanistik, kollektiv va ijodiy xarakterga egadir.

Olimlar pedagogik improvizatsiyani turlicha ta'riflaydilar. Jumladan: V.A. Kan-Kalikni fikricha pedagogik improvizatsiya butun pedagogik jarayonga ijodiy ta'sir ko'rsatadigan muloqot san'atidir, deb ta'kidlaydi. V.Yu. Berikxanova esa o'quv jarayonining tarkibiy qismlarini amalga oshirish va so'zlashish vositasi sifatida talqin etadi. Ayni ushbu masala yuzasidan N. V. Kuzmina pedagogik faoliyat tuzilmasida uchta o'zaro bog'liq komponentni ajratib ko'rsatgan: konstruktiv, tashkilotchilik va kommunikativ. Ushbu funksional turlarni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun tegishli qobiliyatlar zarur bo'lib, ular malakalarda namoyon bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda Pedagogik improvizatsiya pedagogik ijod orqali pedagogikada namoyon bo'ladi, bu dinamik jarayon nafaqat darsga tayyorgarlik ko'rish paytida, balki darsni amalga oshirishda, rejalashtirilgani amalga oshirishda, metodlar, mazmun, ta'lim maqsadlarini aniqlash va konkretlashtirish jarayonida ham amalga oshadi, bu pedagogik loyiha darsining o'quv-tarbiyaviy vaziyatlarga mos ravishda bo'ladi. Pedagogik improvizatsiya o'qituvchining ijodiy faoliyatini pedagogik jihatdan to'g'ri yo'naltiruvchi va nazorat qiluvchi maxsus regulyator funksiyasini bajaradi. Ushbu jarayon bo'lajak o'qituvchilarni jamoa bilan ishlash ko'nikmasida har bir o'quvchi shaxsiga tezlik va aniqlik bilan alohida-alohida yondashuvni anglab yetishida asos bo'lib hizmat qiladi. Umumiy sinf miqiyosida olinadigan nazoratlarda ta'lim sifatini oshirish yuzasidan sinf jamoasini imkoniyat va iqtidori asosida baxolash imkonini beradi.

Texnologiyaning asosiy bosqichi bo'lgan Pedagogik intuitsiya — bu o'qituvchi yoki ota-onaning ichki sezgisi, pedagogik idrok, "olti his", xushyorlik va kuzatuvchanlikdir. Pedagogning intuitiv qarorlari, ko'pincha ichki tushuncha yoki tezgina fikrlar orqali amalga oshiriladi, bu esa o'qituvchining to'g'ri va samarali pedagogik qarorlar qabul qilishiga yordam beradi.

Sohaning ilmiy tahlili yuzasidan shuni ta'kidlash joizki buyuk rus pedagogi K. D. Ushinskiy pedagogikani tarbiyalash san'ati va fan deb atagan. Uning ilmiy tahlillarga asoslangan fikricha pedagogik mehnatda unchalik ko'p bo'lgan narsalar bor, ular uni aktyor, rejissyor, dirijyor, haykaltarosh va boshqa ijodiy kasblar bilan bir xil qiladi. Zero pedagogik faoliyat o'zining yaratuvchan mohiyati bilan nafaqat san'atga, balki o'qituvchidan ilhom, kashfiyot, spontanlik, san'atkorlik, shaxsini asosiy vosita sifatida egallashni talab qiladigan ijodiy jarayonlar bilan ham o'xshashdir.

Pedagogik improvizatsiyaning mohiyatini ochib berish jarayoni asosida V. I. Zagvyazinskiy shunday yozadi: "Kutilmagan vaziyat o'zgarishlari maxsus sezgirlikni talab qiladi, qarorlarni tez va o'zgaruvchan tarzda qabul qilish zarur. Hujjatlarda tekis ko'rinadigan narsalar amalda qiyinchiliklarga duch keladi, ba'zi og'ir vaziyatlarni esa juda oson yengib o'tish mumkin". Biroq, ba'zi pedagoglar, masalan, D. B. Kabalevskiy, improvizatsiya sodda qilib yuboradi va unda xavf mavjud deb hisoblashadi. Ammo o'qituvchining improvizatsiyaga bo'lgan ijodiy yondashuvi va mukammallikni izlashdagi intilishi, bu soddalahuvlarning oldini olish kafolati bo'lishi mumkin.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda zamonaviy ta'lim sohasining o'quv uslubiy munosabatlari va ilmiy asoslarini ochib berish uchun pedagogning mahorati va maxsus bilimni yetkazib beruvchi tarflari mavjud bo'lishi dolzarb masaladir. Texnika rivojlanishi hamda mavzu yuzasidan ma'lumotlar bazasining keng ko'lami targ'ibotida pedagog talabalar uchun mahsus tayyorgarlik va mavzuning ochib berish usullari haqida ilmiy bilimga ega bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.Mirziyoyev. Ta'lim-tarbiya tizimi: taraqqiyotning yangi bosqichi muhokamasi. Toshkent 2020.30.10.
2. Sh.Mirziyoyev Prezident oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasi Jamiyat // 09 Oktabr 2019.
3. Бим-Бад. Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. – М.: Большая рос. энцикл., 2002. – 527 с.
4. Берикханова. Л.Ю. Педагогическая импровизация как индивидуально-своеобразно'й компонент педагогической деятельности// Творческая индивидуальность педагога. – Тюмен, 1991. – С. 32-38.
5. Блюдов. Д.В. Российский государственный институт сценических искусств (Россия, г. Санкт-Петербург). // International Journal of Humanities and Natural Sciences, vol. 11-1 (98), 2024. – С. 77-78.
6. Грачева, Л.В. Ест такая профессия – театрално'й педагог G'G' Театралная педагогика глаза ми молодо'х режиссеров: Сборник статей. – СПб.: Изд-во РГИСИ, 2019. – С. 6-12.
7. Miraxmedova D. "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy tadqiqotlarning salmoqli natijalari: muammo va yechimlar" mavzusida Respublika ilmiy anjuman to'plam materiallari 2024-yil 19-aprel kun. "Bo'lajak o'qituvchilarni improvizatsion muxitda ta'limni amalga oshirishga tayyorlash 181-sahifa.
8. Станиславский, К.С. Стати. Речи. Беседо'. Писма. – М.: Искусство, 1953. – 782 с.
9. Толшин, А.В. Импровизация в обучении актера: Учебное пособие. – СПб.: Лаң, Планета музо'ки, 2014. – 160 с.
10. <https://www.google.com/improvizatsiya+nimani+anglatadi>